

**BUYUK IPAQ YO'LI SHAKLLANISH, RIVOJLANISH,
TARMOQLARI VA AHAMIYATI***Pulatova Shohista Alisher qizi**Toshkent Amaliy Fanlar universiteti**Tarix fakulteti 3 bosqich talabasi*

Annatotsiya: Buyuk ipak yo'li qadimda sharq bilan g'arbni bog'lab turgan savdo yo'li, insoniyat rivojlanishi tarixinining, uning birlashuvga hamda madaniy qadriyatlari bilan almashishga, hayotiy fazo-yu mahsulotlarni sotish uchun bozorlarga erishishga intilishining o'ziga xos bo'lган hodisasi. Dengiz, okean yo'llari ochilmasdan oldin bu yo'llar muhim ahamiyat kasb etgan.

Kalit so'zlar: Savdogarlik, ipak, madaniyatlar to'qnashuvi, davlatlar rivojlanishi, Sharq va G'arb, Xitoy, Yaponiya, So'g'diyona, Toshkent vohasi, Chjan Syan, YUNESKO, Madaniyat.

Qadimda va o'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlarini ilk bor o'zaro bog'lagan qitalararo karvon yo'li. Buyuk ipak yo'li atamasi ushbu yo'ldan tashilgan qimmatbaho mahsulot Xitoy ipagi bilan bog'liq. Buyuk ipak yo'li atamasi qadimda ishlatilmagan. Buyuk ipak yo'lini tarixiy, geografik va madaniy jihatlarini ilmiy o'rganish amalda ko'plab mamlakat olimlari tomonidan 19-asrning 2-yarmidan boshlangan. Uni tadqiq etishga G'arbiy Yevropa, Rossiya va Yaponiya olimlari salmoqli xissa qo'shdilar. 1877 yil mashhur nemis olimi Rixtgofen o'zining „Xitoy” nomli yirik ilmiy asarida ulkan Yevroosiyo materigining turli qismlarini bog'lovchi yo'llar tizimini „Ipak yo'li” deb atagan, keyinchalik „Buyuk ipak yo'li” atamasi qabul qilingan.

Bronza davridagi (mil.avv.III-II mingylliklar) shunday yo'llardan biri „Lojuvard yo'li” deb atalib, uning bir tarmog'i Badaxshon, Baqtriya va Marg'iyona hududlarini Xorazm, Sug'd, Markaziy Qozog'iston va Ural bilan bog'lagan. Bu yo'l Pomir tog'laridan boshlanib, Eron, Old Osiyo, Misr orqali o'tgan. Badaxshon



Lojuvardining Hind vodiysi, Mesopatamiya va Misrdan topilishi bu qimmatbaho toshning Qadimgi Sharqda nihoyatda qadrlanganligidan dalolat beradi.

Qadimgi yo'llardan yana biri, Eron ahamoniylarining yo'li bo'lib, bu yo'lning bir tarmog'i mil.avv. VI-IV asrlarda Kichik Osiyo shaharlarini hamda O'rtayer dengizi bo'yidagi Efes, Sardi shaharlarini Eronning markazlaridan biri Suza bilan bog'lagan bo'lsa, yana bir tarmog'i Eron-Baqtriya orqali So'g'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston hududlaridan o'tib Oltoygacha borgan. Tarixiy adabiyotlarda bu yo'l „shoh yo'li” deb ataladi.

Mil.avv.138-yilda Xitoy imperatori U-DI Chjan Syanni O'rta Osiyo yerlariga jo'natadi. Elchi Chjan Syan(mil.avv.138-126-yillarda) Xitoyning xunnlarga qarshi kurashi uchun ittifoqchi izlab kelgan edi. Mil.avv.II-I asrlarga kelib, Chjan Syan yurgan yo'llarda Xitoyni O'rta va G'arbiy Osiyo bilan bog'laydigan karvon yo'li paydo bo'ladi. Bu yo'l Buyuk ipak yo'li deb atalib, umumiy uzunligi 12000 km dan iborat edi. Ilk o'rta asrlarga kelib, ipak yo'lining yanada rivojlanganliguni kuzatish mumkin. O'z davrida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan bu yo'lning dastlabki tarmog'i Xitoydagি Sian shahridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopatamiya orqali O'rtayer dengizigacha cho'zilgan.

O'rta Osiyo hududlarida antik davrdan boshlab,rivojlanish jarayonlari Buyuk ipak yo'li bilan uzviy bog'liqdir. Xususan mil.avv.II asrdan boshlab Xitoy va O'rta Osiyo tarixiy madaniy viloyatlari bilan savdo va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Farg'ona, Sug'd va Baqtriyaga ipakchilik kirib keldi. Karvon yo'li rivojlanib brogan sari savdo sotiq va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Kushonlar va Eftaliylar davriga kelib (I-VI) O'rta Osiyo orqali o'tuvchi ipak yo'li tarmoqlari nazoratini mahalliy so'g'diy aholi qo'lga oladilar. Qo'shni davlatlar ham ipak yo'lidan manfaatdor bo'lganligi sababli ilk o'rta asrlarda Eron va Vizantiya hukmdorlari so'g'diyalar bilan kurashlar olib bordilar.

Buyuk ipak yo'li bo'ylab ko'plab karvonsaroylar,shaharlar barpo etildi. Bu yo'lidan borayotgan savdogarlar ko'pincha yo'lning oxirigacha bormas edilar. O'rta Osiyo viloyatlari bu yo'lning o'rtasida joylashganligi sababli savdogarlar Xorazm,



Samarqand, Termiz va boshqa hududlarda o'z mollarini sotib, mahalliy mahsulotlarni xarid qilar edilar. O'rta asrlar O'rta Osiyo bozorlarida chetdan keltirilgan ko'plab mahsulotlar mavjud ediki, hozirgi kunda ipak yo'li ustidagi ko'hna shaharlar va manzilhohlardagi arxeologik qazishmalar natijasida topilayotgan topilmalar fikrimizning dalilidir. Mil.avv.II asrda paydo bo'lib, milodning XVI asriga qadar faoliyat ko'rsatgan Buyuk ipak yo'li shu davr ichida Sharq va G'arb xalqlarining keng miqyosdagi o'zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yo'l orqali aloqalar qilgan qadimgi xalqlarning o'zaro hamkorlik, almashinuv va madaniyatlarining boyib borishi, tinchlik va taraqqiyot uchun asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston hududlari bu yo'lning chorrahasida joylashgan bo'lib, bu yerga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va me'morlar tashrif buyurganlar.

YUNESKO tomonidan „Buyuk ipak yo'li muloqot yo'li“ dasturining ishlab chiqilishi Yevroosiyodagi 30 dan ortiq yetakchi davlatlarning 2000 yilga qadar ilmiy madaniy faoliyati uchun yo'nalish bo'ldi. Respublikamiz hududlarida ham ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi. Buning natijasida ko'pgina tarixiy madaniy obidalar o'rganildi, qadimgi yo'llar va yo'nalishlar aniqlandi, milliy va ma'naviy boyligimiz hamda an'analarimiz o'rganildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Buyuk ipak yo'li. A.Xo'jayev. Toshkent. 2007/146-bet.
- 2.O'zbekistonning tarixiy o'tmishi. E.Rtveladze. Toshkent. 2009.
- 3.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi I jild. Toshkent. 2005.
- 4.Markaziy Osioning qadimgi yo'llari shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. O'.Mavlonov. Toshkent. 2008.
- 5.O'zbekiston tarixi. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. Toshkent.2006. 71-75 bet.
- 6.Buyuk ipak yo'li. E.Rtveladze.Toshkent Sharq.1999.
- 7.O'zbekiston tarixi. R.H.Murtozoyev. Toshkent. 2005. 96-101bet.